

**SURXON VOHASI BOBOTOG‘ ADIR - YAYLOV YEM-XASHAK
O‘SIMLIKLARI HOSILDORLIGINI DASTLABKI ANIQLASH VA
MONITORING TAHLILLARI**

UDK.633.2/.3(23.01).

*Mamatqobil Ismoilovich Omonov- TerDU Botanika kafedrası dotsenti,
prof v/b., biologiya fanlari doktori (DSc).*

mamatkobilomonov1958@mail.ru

*Abdunazarov Chori Xudonazarovich- TerDU mustaqil tadqiqotchi
abdunazarovchori2@gmail.com*

**ПРЕДВАРИТЕЛЬНОЕ ОПРЕДЕЛЕНИЕ И МОНИТОРИНГОВЫЙ
АНАЛИЗ УРАЖАЙНОСТИ КОРМОВЫХ РАСТЕНИЙ ПАСТБИЩА В
ДОЛИНЕ СУРХАН БАБАТАГСКОГО АДИРА**

*Омонов Маматкобил Исмоилович доктор биологических наук,
доцента Термезский государственный университета*

маматкобиломонов1958@маил.ру

*Абдуназаров Чори Худойназарович- ТерГУ соискател
абдуназаровчори_2@гмаил.сом*

**PRELIMINARY DETERMINATION AND MONITORING
ANALYZES OF THE PRODUCTIVITY OF PASTURE FORAGE PLANTS
IN SURKHAN VOXA BOBOTOG ADIR**

*Omonov Mamatqobil Ismoilovich Associate Professor doctor of
biological sciences of Termez State University*

mamatkobilomonov1958@mail.ru

*Abdunazarov Chori Khudonazarovich- Ter DU is an independent
researcher*

abdunazarovchori_2@gmail.com

Kirish. Qorako'l zotli qo'ylar asosan cho'l hayvoni sifatida shakllangan bo'lib, hosildorligi past bo'lgan yaylovlarda yaratilgan. Shu bois, qorako'l qo'ylari yil bo'yi yaylov sharoitida boqilishga moslashgan bo'lib, yilning 9–10 oy davomida cho'l va chala cho'l, tog' oldi yaylovlarining yem-xashak o'simliklari hisobidan oziqlanadi. Ularning o'ziga hos biologik va mahsuldorlik xususiyatlariga ko'ra, oziq-ovqat sanoati uchun go'sht, yengil va charm sanoatiga qimmatbaho qorako'l terisi hamda jun yetishtirib beradi.

Bugungi kunda mamalakatimiz qishloq xo'jaligida foydalanib kelinayotgan yer resurslarining qariyb 80 % cho'l va yarim cho'l mintaqalari tashkil qilib, bu hududlardan yaylov chorvachiligining asosiy ozuqa manbai sifatida foydalanish imkoniyati yaratilgan. Shu bois, cho'l va yarim cho'l yaylovlari chorvachilik uchun eng arzon ozuqa manbai hisoblanadi.

Respublikamiz hududining cho'l va chala cho'l hududlarida asosan tabiiy sharoit xususiyatidan kelib chiqib, asrlar davomida cho'l hududining barcha ko'rinishdagi ekologik sharoitiga mukammal moslashgan o'simliklar qoplami ozuqabop yem-xashak sifatida qorako'l qo'ylariga yilning hamma fasllarida qimmatbaho hisoblanib kelingan.

Bunday ozuqabop o't-o'lan o'simliklari o'zining xushxo'rliqi, to'yimliliqi, tarkibida oqsil, makro va mikro elementlarga boyligi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, yaylovlarda mavsumiy o'sadigan bahor faslidagi o'tlar servitamin va shirali, to'yimli hisoblanib ona sovliq va yosh qo'zilarining o'sishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq, mazkur cho'l-yaylov chorvachiligi hozirgi kunda ekstensiv rivojlanish yo'lidan bormoqda hamda uning samaradorligi tabiat bilan uzviy bog'liqligicha qolmoqda. Xususan, turli sabablarga ko'ra yaylovlar hosildorligi va mavjud o'simliklar xilma-xilligining keskin kamayib ketishi bugungi kunda mamlakatimiz chorvachiligining barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonning janubiy Surxon, g'arbida O'rta cho'l, Qizilqum hududida zichlangan kul rang qo'ng'ir tuproqli maydonlarda, asosan shuvoq-efemer

o'simliklar va asosiy yem-xashak o'simliklaridan - sershox burgan, shuvoq; efemeroidlardan-rang, qorabosh, qo'ng'irbosh; efemer-boshqodoshlardan-arpag'on, yaltirbosh va boshqa bir qator o'simliklar o'sadi. Bundan tashqari, tog' oldi chala cho'l soz tuproqli serdo'ngliklardan iborat bo'lgan tog' oldi etaklaridagi adirlarda asosan efemeroidlar - yo'g'on poyali sho'rak (rang) va efemerlar, yantoq, karrak, qo'ng'irbosh va boshqa bir qator ozuqabop o'simliklar o'sadi.

Lekin, keyingi yillarda ob-havo noqulay kelishi va yog'ingarchilikning kam bo'lishi yaylovlar hosildorligiga, turli xil ozuqabop o't-o'lanlar soni va qoplamasining kamayib ketishiga sabab bo'lmoqda. Buning oqibatida qorako'l qo'ylari yetarlicha oziqlanish imkoniyatlariga ega bo'lmasligi, sovliq qo'ylarning qisir qolishiga, turli xil kasalliklarga chalinishi, o'sishi va rivojlanishi yomonlashuviga olib kelmoqda. Bularning barchasi mamlakatimiz qorako'l qo'ylari genefondini saqlash va ko'paytirish, mahsuldorligini oshirish, qorako'l teri sifatini yaxshilash, naslchilik ishlarini olib borishda bir qator muammolarga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra hozirgi kunda mamlakatimizda mavjud 20,0 mln./ga ortiq yaylov maydonlarining 16,4 mln./ga (78,0 %) inqirozga uchragan, 20 foizdan ortiq yaylovlarda o'simliklar turi kamayib ketganligi, o'z navbatida yaylovlarga qarovsizlik va payhon qilinishi oqibatida shu darajaga kelib qolmoqda. Yaylovlarda o'sadigan turli xil o'simliklar soni 247 xildan 42 xilgacha tushib qolmoqda va ozuqa ekinlari hosildorligi 1,5–2,5 s/ga qisqarib ketmoqda.

Xususan, cho'l yaylov chorvachiligi sohasining ozuqa zahiralarining o'ta beqarorligi, ya'ni yaylov ozuqasi hosilining yillik yog'in-sochin miqdori bilan bog'liqligi, qurg'oqchil yillar ozuqa tanqisligining keskin tus olishi va bunday yillarning tez-tez takrorlanib turishi cho'l-yaylov chorvachiligiga katta iqtisodiy talofot yetkazmoqda.

O'zbekistonda qorako'lchilikni rivojlantirish imkoniyatlari yetarli ekanligidan kelib chiqib, qorako'lchilikni tubdan isloh qilish, tiklash va yanada rivojlantirish choralarining ko'rilishiga hukumat darajasida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 martdagi

“Qorako‘lchilik sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3603-sonli qarorga asosan cho‘l ozuqa yaylov o‘simliklarining urug‘chiligini ilmiy jihatdan asoslangan holda yo‘lga qo‘yish, tabiiy yaylovlarda o‘simliklar bioxilma-xilligini tiklash va hosildorligini oshirish vazifalari belgilab berildi.

Aynan, mamlakatimizda qorako‘lchilikni tiklash va rivojlantirishda naslchilik ishlarini ilmiy va innovatsion g‘oyalar asosida tizimli olib borilishi, pirovardida qorako‘l qo‘ylari genofondini ko‘paytirish, mahsuldorlik ko‘rsatkichlari va qorako‘l terilari sifatini oshirish va ularni xalqaro mo‘yna bozorlari talablari darajasiga yetkazish imkoniyatlari borasida yetarli shart-sharoitlar yaratib berilishi ko‘zda tutilmoqda.

Shu bois, yaylovlarning mol sig‘imiga e‘tibor qilinmasa, ulardan yil bo‘yi uzluksiz foydalanish natijasida cho‘l yaylovlari o‘simlik qoplamida salbiy o‘zgarishlar yuzaga kelib, biologik xilma-xillikning kamag‘allashuvi, yaylovlar hosildorligining pasayishi bilan bir qatorda, ozuqa sifatining yomonlashuviga olib keladi.

Tadqiqot tahlillari shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘ngi yillarda iqlim o‘zgarishi, surunkasiga ob-havoning qurg‘oqchil kelishi natijasida yaylovlar hosildorligining keskin kamayib ketishiga olib kelmoqda. Keyingi 15-20 yillarda turli tipdagi yaylovlarning holatini aniqlash va hosildorligini o‘rganish ishlariga yetarli e‘tibor qaratilmaganligi o‘z navbatida yaylovlar xilma-xilligining kamayishi va hosildorlikning kamayishiga sabab bo‘ldi.

Bugungi kunda har bir yaylov hududlari 5-7 km radiusda kuchli inqirozga uchramoqda. Ilmiy ma‘lumotlarga ko‘ra hozirgi kunda O‘zbekiston qorako‘lchilik yaylovlarining qariyb 40 % turli darajadagi inqiroz yuz bergan (Rafiqov, 1997; Maxmudov, 2005). Quduqlar atrofidagi kuchli inqirozga uchragan yaylovlar maydoni 0,5 mln ga, ko‘chma qum massivlari maydoni esa 2,0 mln ga ni tashkil qiladi.

Yaylovlar inqirozi tufayli hozirgi kunda hosildorlik o‘rtacha 2,5 s/ga dan 1,8 s/ga ga, yoki 21 % ga pasaygan.(Maxmudov, 2005). Kuchli inqirozga uchragan yaylov massivlarida o‘simliklar xilma-xilligi 5-6 turdan ortmaydi.

Shulardan ham yarmidan ortig'i ozuqaviy xususiyati qoniqarsiz, deyarli yeyilmaydigan isiriq, qo'ziquloq, qirqasoch, oqqo'ray, uchma kabi o'simliklardan iborat.

Bunday salbiy holatlarning oldini olish va yuzaga kelgan muammolarni yechish uchun cho'l yaylovlarida monitoring ishlarini olib borish va turli tiplarga mansub yaylovlarning geobotanik, fitotsenologik holatini o'rganish va monitoring qilishdagi olingan natijalarni baholash va tahlil qilish asosida, yaylovlardan oqilona foydalanish usullarini aniqlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Biz tadqiqotlarimizni Navoiy viloyati "Nurota" va Surxondaryo viloyati "Bobotog' suri-qorako'lchilik" MChJ xo'jaliklari yaylov hududlarida olib bordik.

Tadqiqot ishlarining maqsadi va vazifalari. Ilmiy tadqiqot ishlarining asosiy maqsadi, Respublikamiz qorako'lchilik xo'jaliklari yaylovlarini, (hosildorligini) monitoring qilish, baholash, tahlil qilish asosida, yaylovlardan oqilona va ratsional foydalanishning usullarini aniqlashdan iborat.

Ilmiy ishlarning uslublari: (V. V. Alexin, 1925; N. I. Morozov, 1955; S. O. Krasnopolin, 1956; A. I. Granitov, 1962; L. S. Gaevskaya, 1961, 1963; M.I.Ro'zimetov, R.A.To'raev, 2018) uslublaridan foydalanildi.

Ilmiy-tadqiqot ishlaridan olingan natijalar. Adir mintaqasi O'zbekiston Respublikasi hududining 9,5 % tashkil qiladi. Adirlarning tabiiy va ozuqa bilan ta'minlanish imkoniyatlari qorako'lchilikning cho'l hududlariga nisbatan qulayligi bilan ajralib turadi.

Yillik o'rtacha havo harorati biroz (13-15⁰S): eng issiq davr-iyul (o'rtacha 25-27⁰ S), sovuq oy -yanvar (-30⁰ S), yillik yog'in miqdori-250-350 mm. Yog'ingarchilikning asosiy qismi kuz-qish va erta bahor (mart-aprel) oylarida to'g'ri keladi. Adir yaylovlarida ko'plab turga mansub o'simliklarni uchratish mumkin. Yog'ingarchilik ko'p bo'lgan yillarda o'simlik turlari soni ham ortadi va ularning hosildorligi ham mo'l bo'ladi. Aksincha, qurg'oqchil kelgan yillarda o'simliklar xilma-xillgi ham, hosildorligi ham keskin kamayib ketadi.

Ko'p yillik tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, adir yaylovlari hosildorligi yilning kelishga karab gektaridan 6,5 sentnerdan 0,6 sentnergacha o'zgarib turadi. Yozga kelib, efemer o'simliklar qovjirab qoladi, sinadi va shamolda uchib yo'qolib ketib, yaylov ozuqa miqdori keskin kamayadi. Shunday qilib, efemer o'tli adir yaylovlari faqatgina bahorda va yozning birinchi yarmidagina qoniqarli yaylovlar hisoblanib, kuz va qish mavsumlarida bunday yaylovlarda mol boqishning iloji qolmaydi. Endi kuz faslida adir yaylovlarini monitoring qilinganda mol boqilmagan doimiy qo'riqlangan maydonlarda o'rtacha yaylov hosildarligi 5,1 s/ga teng

1-jadval

Adir yaylovlarining hosildorligi, s/ga

Transektlar	Tabiiy yaylovlar mol boqilmagan maydonlar		Doimiy mol boqilgan yaylovlar	
	Bahorda	Kuzda	Bahorda	Kuzda
Transekt-1	11,76	6,4	7,3	1,4
Transekt-2	14,0	5,0	5,0	2,1
Transekt-3	15,0	4,2	9,4	0,6
Transekt-4	11,9	4,0	6,9	0,4
Transekt-5	16,0	5,1	3,6	1,8
Transekt-6	15,5	6,0	4,5	1,0
Jami:	84,16	30,7	36,7	7,3
O'rtacha	14,0	5,1	6,1	1,2

Doimiy mol boqilib kelinayotgan yaylovda kuzga kelib hosildorlik 1,2 s/ga tashkil etdi. Jadvaldagi raqamlardan xulosa qilishimiz mumkin. Yuqorida qayt etib o'tilgandek adir yaylovlarida efemer o'simliklar yozning issiq kunlarida qovjurab qurib shamolda uchib ketishi (bahorda 14 s/ga bo'lib, kuzda 5,1 s/ga) kelib qolishi bilan yana bir marta isbotlandi. Bu yilgi yaylov hosildorligi yuqori bo'lishi, qish va bahor oylarida yog'ingarchilik miqdorining (300mm) ko'p bo'lishi bilan bog'liq bo'ldi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda qorako'lchilikni rivojlantirish uchun, avvalo, qorako'l qo'ylari cho'l yaylovlari sharoitida yaratilganligidan kelib chiqib, yaylovlar hududlarini kegaytirish va hosildorligini oshirish, kammahsul yaylovlarni tiklash maqsadida ozuqabop ekinlarni ekish va mavjud o'simliklar turlarini saqlab qolish hamda ko'paytirish, o'simliklar bioxilma-xilligini boyitish, turli zararkundalardan saqlash va ularga qarshi kurashish choralari ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Yaylovlar holati va hosildorligi yaxshilansa, qorako'l qo'ylarining oziqlanishi, o'sishi va rivojlanishi, mahsuldorligi, hayotchanligi, sog'lomligi va nasl sifati yaxshilanishi bilan bir qatorda qorako'l qo'ylari genofondini saqlash, ko'paytirish va qorako'l terilarning sifatini oshirish imkoniyatlari yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alexin V. V. i dr. Metodika geobotanicheskex issledovaniy. M.,1925.
4. Krasnopolin Ye. S. O Metodike raschetov pri opredelenii kormovыx zapasov i yemkosti karakulevodcheskix pastбыщ. «Karakulevodstvo i zverovodstvo», 1956, № 3.
6. Ruzmetov M. I., To'rayev R. A. O'zbekiston tabiiy yaylov va pichanzorlarida geobotanik tadqiqotlar o'tkaziy bo'yicha uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2018, 156 b.
7. Rafiqov A.A. Geoekologicheskij monitoring pustыn Uzbekistana i razrabotka strategii borбы s opustыnovaniem. // Byulleten GKNT R UZ., 1997, 3-4s. 48-53

12